

2019-yil 1-oktabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot



2019-yil 1-oktabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 4 641 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 111 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 702 ta (16,7 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 25 804 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-oktabr holatiga 25 804 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,6 % savdo, 21,1 % sanoat, 7,5 % qurilish, 6,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 26,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.10.2019 yil	
	01.10.2018 yil	01.10.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	22 102	25 804	116,7	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 614	1 764	109,3	6,8
Sanoat	4 327	5 438	125,7	21,1
Qurilish	1 633	1 930	118,2	7,5
Savdo	5 344	6 863	128,4	26,6
Tashish va saqlash	792	976	123,2	3,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	894	1 133	126,7	4,4
Axborot va aloqa	344	375	109,0	1,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	503	543	108,0	2,1
Boshqa turlari	6 651	6 782	102,0	26,3

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar sonining eng ko'pi Namangan shahri (9 433 ta), Chust (2 125 ta), Namangan (1 788 ta) va Uychi (1 623 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1 062 ta), Norin (1 103 ta) hamda Yangiyo'rg'on (1 296 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25 249 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4288 ta (20,5 %)ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,4 % savdo, 21,2 % sanoat, 7,5 % qurilish, 6,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 186 ta), Chust (2 054 ta), Namangan (1 758 ta), Uychi (1 614 ta) va Kosonsoy hamda To'raqo'rg'on (1 530 tadan) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1 058 ta), Norin (1 095 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1 265 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-sentabr oylarida 4 641 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko`pdir.


2015-2019 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1 372 ta), Chust (387 ta), Pop (368 ta), Uychi (329 ta) va Uchqo`rg`on (326 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (230 ta), Yangiqo`rg`on (239 ta) hamda Norin (255 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1821 ta), sanoat (1 231 ta), qurilish (388 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (270 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (38 ta), axborot va aloqa (66 ta) hamda tashish va saqlash (177 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari
kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-oktabr holatiga 20 939 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususi korxonalar - 6 526 ta, oilaviy korxonalar - 472 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 13 403 ta, unitar korxonalar - 152 ta, aksiyadorlik jamiyatlari - 26 ta va boshqalar 360 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 205 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 81 taga yoki 65,3 %ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-oktabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko`rsatayotgan korxonona va tashkilotlarning eng ko`pi Namangan shahri (69 ta), Kosonsoy (20 ta), Chortoq (18 ta), Chust (17 ta), Pop va Uychi (16 tadan) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Mingbuloq (4 ta), Namangan hamda Uchqo`rg'on (5 tadan) tumanlariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 136 tasi qo'shma korxonalar, 69 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Namangan viloyati	205	100,0
Namangan shahri	69	33,7
Mingbuloq	4	1,9
Kosonsoy	20	9,8
Namangan	5	2,4
Norin	10	4,9
Pop	16	7,8
To'raqo'rg'on	15	7,3
Uychi	16	7,8
Uchqo'rg'on	5	2,4
Chortoq	18	8,8
Chust	17	8,3
Yangiqo'rg'on	10	4,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 74 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahri (18 ta yoki jamidagi ulushi 24,3 %), Chortoq (9 ta yoki 12,2 %), Kosonsoy va Chust (8 tadan yoki 10,8 %dan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Namangan tumani (1 ta yoki 1,4 %), Mingbuloq hamda Uchqo'rg'on tumanlari (2 tadan yoki 2,7 %dan) hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 10 ta, Turkiya Respublikasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 13 ta, Qozog'iston Respublikasi - 2 ta va Koreya Respublikasi - 10 ta hamda boshqa davlatlar - 35 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (29 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (15 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 tadan) tashkil etilgan. Axborot va aloqa hamda tashish va saqlashda xorijiy kapital ishtirokida korxonalar tashkil etilmagan.


**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20 828 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-oktabr holatiga qaraganda 23,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 7 940 tasi (38,1 %) Namangan shahri, 1 705 tasi (8,2 %) Chust, 1 509 tasi (7,2 %) Namangan hamda 1 332 tasi (6,4 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiyati ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20828 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6622 tasi (31,8 %) - savdo, 5328 tasi (25,6 %) - sanoat, 1874 tasi (9,0 %) - qurilish, 1694 tasi (8,1%) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1092 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 955 tasi (4,6 %) - tashish va saqlash, 440 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 336 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2487 tasi (11,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 - yil yanvar-sentabr oylarida 4 454 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,9 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1 309 ta), Chust (374 ta), Pop (351 ta), Uchqo'rg'on (318 ta) va Uychi (316 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (223 ta) hamda Yangiqo'rg'on (229 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng ko'pi savdoda (1 820 ta), sanoatda (1 229 ta), qurilishda (388 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (268 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (38 ta), axborot va aloqada (55 ta) hamda tashish va saqlashda (177 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-oktabr holatiga 481 tani tashkil etib, ulardan 472 tasi yoki 98,1 %ni faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 51,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 47,2 % yoki 223 tasi sanoat, 17,2 % yoki 81 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 16,1 % yoki 76 tasi savdo, 8,7 % yoki 41 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5 % yoki 7 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 3 ta qurilish sohasi, 0,4 % yoki 2 ta tashish va saqlash hamda 7,2 % yoki 34 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa, tashish va saqlash hamda qurilish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Namangan viloyati	170	100,0
Namangan sh.	48	28,2
Mingbuloq	2	1,2
Kosonsoy	9	5,3
Namangan	8	4,7
Norin	11	6,5
Pop	7	4,1
To'raqo'rg'on	36	21,2
Uychi	5	2,9
Uchqo'rg'on	19	11,2
Chortoq	2	1,2
Chust	9	5,3
Yangiqo'rg'on	14	8,2

2019-yil yanvar-sentabr oylarida 170 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,5 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Namangan shahri (48 ta), To'raqo'rg'on (36 ta), Uchqo'rg'on (19 ta), Yangiqo'rg'on (14 ta) va Norin tumanlari (11 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Chortoq, Mingbuloq (2 tadan), hamda Uychi (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 43,5 % yoki 74 tasi sanoat, 24,1 % yoki 41 tasi savdo, 19,4 % yoki 33 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,1 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,6 %dan yoki 1 tadan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash, shuningdek, 3,5% yoki 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qurilish sohasi bo'yicha yangi oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

**Namangan viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi
Tel.:71-230-80-95(96)**